

ISSN:2181-0427 ISSN:2181-1458

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС
ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

**НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТНОМАСИ**

**НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК НАМАНГАНСКОГО
ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА**



2021 йил махсус сон



Боши мұхаррір: Наманган давлат университети ректори С.Т.Тургунов

Масъұл мұхаррір: Илмий ишлар ва инновациялар бүйічі проректор М.Р.Қодирхонов

Масъұл мұхаррір ұрینбосары: Илмий тадқиқот ва илмий педагогик кадрлар тайёрлаш бўлими бошлиги Р.Жалалов

ТАҲРИРҲАЙЪАТИ

Физика-математика фанлари: акад. С.Зайнобиддинов, акад. А.Аззамов, ф-м.ф.д., доц. М.Тұхтасинов, ф-м.ф.д., проф. Б.Саматов. ф-м.ф.д., доц. Р.Хакимов, ф-м.ф.д. М.Рахматуллаев.

Кимё фанлари: акад.С.Раширова, акад. А.Тұраев, акад. С.Нигматов, к.ф.д., проф.Ш.Абдуллаев, к.ф.д., проф. Т.Азизов.

Биология фанлари: акад. К.Тожибаев, акад. Р.Собиров, б.ф.д. доц.А.Баташов, б.ф.д. Н.Абдураҳмонов.

Техника фанлари: - т.ф.д., проф. А.Умаров, т.ф.д., проф. С.Юнусов.

Кишлоқ хұжалиғи фанлари: - г.ф.д., доц. Б.Камалов, қ-х.ф.н., доц. А.Қазаков.

Тарих фанлари: - акад. А.Аскаров, с.ф.д., проф. Т.Файзуллаев, тар.ф.д., проф. А.Расулов, тар.ф.д., проф. У.Абдуллаев.

Иқтисодиёт фанлари: - и.ф.д., проф.Н.Махмудов, и.ф.д., проф.О.Одилов.

Фалсафа фанлари: -ф.ф.д., проф. М.Исмоилов, ф.ф.н., О.Маматов, PhD Р.Замилова.

Филология фанлари: - акад. Н.Каримов, фил.ф.д., проф.С.Аширбоев, фил.ф.д., проф. Н.Улуков, фил.ф.д., проф. Ҳ.Усманова. фил.ф.д.,проф. Б.Тухлиев, фил.ф.н., доц.М. Сулаймонов.

География фанлари: - г.ф.д., доц. Б.Камалов, г.ф.д., проф.А.Нигматов.

Педагогика фанлари: - п.ф.д., проф. У.Иноятов, п.ф.д., проф. Б.Ходжаев, п.ф.д., п.ф.д., проф. Н.Эркабоева, п.ф.д., проф.Ш.Хонкелдиев, п.ф.д., проф Ӧ.Аскарова, п.ф.н., доц. М.Нишонов, PhD П.Лутфуллаев.

Тиббиёт фанлари: -б.ф.д. F.Абдуллаев, тиб.ф.н., доц. С.Болтабоев.

Психология фанлари – п.ф.д.,проф З.Нишинова, п.ф.н., доц. М.Махсудова

Техник мұхаррір: *Н.Юсупов*

Таҳририят манзили: Наманган шаҳри, Уичи қўчаси, 316-уй.

Тел: (0369)227-01-44, 227-06-12 **Факс:** (0369)227-07-61 **e-mail:** *ilmiy@inbox.uz*

Уишу журнал 2019 йилдан бошлиб Ўзбекистон Республикаси Олий аттестация комиссияси Раёсати қарори билан физика-математика, кимё, биология, фалсафа, филология ва педагогика фанлари бўйича Олий аттестация комиссиясининг диссертациялар асосий илмий натижаларини чоп этиши тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

“НамДУ илмий ахборотномаси–Научный вестник НамГУ” журнали Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлигининг 17.05.2016 йилдаги 08-0075 рақамли гувоҳномаси хамда Ўзбекистон Республикаси Президенти Администрацияси ҳузуридан Ахборот ва оммавий коммуникациялар агентлиги (АОКА) томонидан 2020 йил 29 август куни 1106-сонли гувоҳнома га биноан чоп этилади. “НамДУ Илмий Ахборотномаси” электрон нашр сифатида ҳалқаро стандарт туркум рақами (ISSN-2181-1458)га эга НамДУ Илмий-техникавий Кенгашининг 27.10.2021 йилдаги кенгаитирилган ийгилишида муҳокама қилиниб,

илмий тўплам сифатида чоп этиши га рухсат этилган (Баённома № 13). Мақолаларнинг илмий савиаси ва келтирилган маълумотлар учун муаллифлар жавобгар ҳисобланади.

НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ-2021



НамДУ илмий ахборотномаси - Научный вестник НамГУ 2021 йил маҳсус сон

bilimli va ma'naviyatli komil insonlar qolmog'i kerak. Bizni ko'kka ko'taradigan, barkamollik sari yetaklaydigan, insonlar qalbiga yorug'lik va iliqlik kiritadigan, oq va qora , yaxshilik bilan yomonlik, vayronkorlik bilan buniyodkorlikning farqini ongli ravishda anglatishga yordam beradigan, insoniyat tamonidan yaratilgan eng noyob kashfiyat ham bu - kitobdir. Kitob insonni ulug'laydi, Vatanni sevish, insonparvarlik, o'zi yashab turgan hayotga shukronalik hissi bilan qarash, boshqalarga mehr-muruvvatli va xushmuomila bo'lish, atrofdagi insonlarga yaxshilik ularish kabi insoniy fazilatlarni tarbiyalaydi. Xulosa qilib aytganda, barcha ezu ishlarning, buniyodkor g'oyalarning asosi bu kitobdir.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

- 1.Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'llimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. – T.: "O'zbekiston", NMIU, 2017. – 592 b.
- 2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi (2017-yil 13-sentyabr) Qarori //lex.uz/docs/3338600.
- 3.2020-2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab quvvatlash MILLIY DASTURI 1-bob
- 4.M. Inomova "Oilada bolalarning ma'naviy, axloqiy tarbiyasi"-T.: "O'zbekiston" 1999 y
- 5.O.Bo'riyev "Oila va yangi an'analar" -T.: "O'zbekiston" 1988 y
- 6.T.Jalilov "An'analar hayot sabog'i" - T.: "O'zbekiston" 1992 y
- 7.Z.Berdiyeva "Kutubxonashunoslik" -T.: "Ilm ziyo" 2013y
- 8.<http://library.ziyouz.uz.book>
- 9.<http://n.ziyouz.com.category>

BOLALAR BOG'CHASIDA CHET TILNI O'RGATISH METODIKASI

Nishanova Tursunoy Abdioxidovna, NamDU o'qituvchisi
Shermatjonova Madinabonus Ne'matjon qizi, NamDU magistranti

E-mail: ntursunoy1987@mail.ru

Tel: +998945088020

Annotation: Ushbu maqolada maktabgacha ta'lrim muassasalarida bolalarga chet tilni o'qitish metodikasi va maqsadlari haqida fikr yuritilgan. Jumladan, bolalarda muloqot kompetentsiyasi rivojlantirish, o'yinlarni chet tilni o'qitishdagi o'rni, eshitish va gapirish ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan metodlar berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lrim muassasalarini, bolalar bog'chasi, rivojlanmoq, məktəb o'quvchilari, ta'lim uslublari, o'yin, tarbiya, jamiyat, chet tili, muloqot, ko'nikma, faol, erkin harakat, kompetentsiya.

МЕТОДИКА ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ДЕТСКОМ САДУ

Нишанова Турсуной Абдиохидовна, преподаватель НамГУ
Шерматжонова Мадинабону Нематжон кизи, магистрант НамГУ



Аннотация: В этой статье говорится о методике и основных целях преподавания иностранного языка в дошкольных учреждениях. Развитие коммуникативной компетенции, привития навыков и умений аудирования, понимания у дошкольников, о роли игр на уроках иностранного языка.

Ключевые слова: методы обучения, цели, дошкольники, развитие, игра, компетенция, умения, навыки, воспитание, общество, иностранный язык, учитель, дошкольное учреждение, активность, аудирование.

METHODS OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE IN KINDERGARTEN

Nishanova Tursunoy Abdioxidovna, teacher of Namangan State University

Shermatjonova Madinabonu Ne'matjon qizi,

Namangan State University 1st year master's student

Annotation: This article discusses the methodology and objectives of teaching a foreign language to preschools. In particular, the development of communication skills in children, the role of games in teaching foreign languages.

Keywords: preschools, children, development, teaching methods, play, upbringing, society, foreign language, communication, skill, active, free movement, competence.

So'ngi bir necha yil ichida chet tilni o'rganish o'z-o'zini rivojlantirish usuli emas, balki zaruratga aylandi. Chet tilni o'qitish nafaqat maktab va oliv o'quv yurtlarida, balki ko'plab maktabgacha ta'lif muassasalarida, ya'nibolalar bog'chasida ham ta'limning majburiy tarkibiy qismiga aylandi. Jamiyatda chet tiliga bo'lgan talab, bir tomonidan, ota-onalarning til nafaqat zamonaviy shaxsning tarbiyalash omili, balki uning jamiyatdagi ijtimoiy va moddiy farovonligining asosi ekanligini tushunishidir. Qolaversa, hozirgi vaqtida chet tilni erta o'rganish ayniqsa muhim va dolzarb hisoblanadi. Agar ilgari tilni bilish faqat ayrim sohalardagi ishlarda talab qilingan bo'lsa, endi kamida bitta chet tilni bilish majburiyidir.

Chet tilning o'rganishning asosiy muammosi – bolaning yoshi. Ma'lumki, bolalar o'rganishga ko'proq moyil bo'lishadi. Yaqin vaqtgacha o'qitish metodikasi maktab yoshidagi bolalarga qaratilgan bo'lsa endi ota-onalar farzandlarini chet tilni bilishiga imkon qadar erta o'rganishi uchun sharoit yaratishga intilmoqdalar. Maktabgacha yoshdagi bolalarga chet tilni o'rgatishning asosiy maqsadlari:

- bolalarda chet tilda birlamchi muloqot ko'nikmalarni shakllantirish;
- o'z maqsadlariga erishish uchun chet tildan foydalanish, real muloqot sharoitida fikr va histuyg'ularini ifodalash qobiliyatini rivojlantirish;
- chet tilni o'rganishga bo'lgan ijobiy munosabatni shakllantirish;
- boshqa mamlakatlar hayoti va madaniyatiga qiziqish uyg'otish.

Chet tilni o'rganishni boshlash uchun maktabgacha yosh ayniqsa qulaydir: bu yoshdagি bolalar til hodisalarga alohida sezgirlik bilan ajralib turadi, ularda nutq tajribasini, tilning "sirlarini" tushunishga qiziqish rivojlanadi. Bolalar oz miqdordagi lingvistik materialini osongina va mustahkam yod oladilar, takrorlaydilar.

Chet tilni o'rganish uchun erta yoshni afzal ko'rishning yana bir sababi bor. Bola qanchalik kichik bo'lsa, uning ona tilidagi so'z boyligi shunchalik kam bo'ladi, lekin ayni paytda uning nutqqa bo'lgan ehtiyoji kamroq bo'ladi.



Maktab o'quvchiga qaraganda kichik yoshdagi bola uchun muloqot mavzulari oz va elementar bo'ladi.U chet tilni o'zlashtirar ekan, ona va chet tillari imkoniyatlari o'rtasida katta farqni sezmaydi va uning muvaffaqiyat hissi katta yoshdagi bolalarnikidan yorqinroq bo'ladi. Bolalarni chet tilni o'qitishda maktab o'quvchilari va kattalarga nisbatan mutlaqo boshqacha uslubiy yondashuv talab etiladi.Ma'lum bir chet tilni bilgan inson hammaga shu tilni o'rgata oladi degan gap emas. Uslubiy jihatdan kamchiligi bo'lgan darslarga duch kelgan bolalar uzoq vaqt davomida chet tilni o'rganishni xoxlamay qolishi va o'z qobiliyatlariga ishonchlarini yo'qotishlari mumkin.Maktabgacha yoshdagi bolalar bilan faqat tajribali mutaxassislar ishlashi kerak. Ularga chet tilni o'rgatishda, dastlabki bosqichida quyidagi jihatlarni o'z ichiga olgan kommunikativ kompetentsiya asoslarining aspektlari bosqichma-bosqich rivojlantirishi maqsadga muvofiqdir:

- bolalarda chet tildagi so'zlarni o'qituvchidan keyin fonetik nuqtai nazaridan to'g'ri takrorlay olishlari uchun talaffuzini rivojlantirish;
- chet tildagi lug'atni o'zlashtirish, mustahkamlash va faollashtirish;
- ma'lum miqdordagi elementar grammatik tuzilmalarni o'zlashtirish, izchil gap tuzishni o'rgatish.

Chet tili metodikasi bolalarning yoshi, til qobiliyatları va individual xususiyatlarini hisobga olgan holda tuzilishi va ularni rivojlanishiga qaratilgan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Chet tilda muloqot motivatsiyali va maqsadli bo'lishi lozim.

Maktab yoshdagi bolada chet tildagi nutqqa ijobjiy psixologok munosabatni shakllantirish muhimdir.Ijobiy motivatsiyani yaratishda o'yin faoliyatidan keng foydalanish maqsadga muvofiqdir. O'yin ham tashkil etish shakli, ham darslarni o'tkazish usuli bo'lib, unda bolalar ma'lum bir chet tilni so'z boyligiga ega bo'lib, ko'plab she'r va qo'shiqlarni yodlaydilar. Mashg'ulotlarni o'tkazishning bunday shakli til va nutq ko'nikmalarini egallash uchun qulay shart-sharoitlarni yaratadi. O'yin faoliyati chet tildagi muloqot uchun tabiiy motivatsiyani ta'minlashga, hatto eng oddiy gaplarni ham qiziqarli va mazmunli bo'lishini ta'minlaydi.

Chet tilni o'qitishda o'yin o'quv faoliyati bilan uzviy bog'liqdir. O'yin metodikasi hayoliy vaziyatni yaratishga va bola yoki o'qituvchi tomonidan ma'lum bir rolni qabul qilishga asoslangan. O'quv o'yinlari vaziyatli, musobaqali, ritmik-musiqiy va badiiy o'yinlarga bo'linadi.

Vaziyat – muayyan vaziyatda muloqot holatlarini taqlid qiluvchi rolli o'yinlardir. Rolli o'yinlar – turli xil hayotiy vaziyatlarni bolalar ma'lum rollar yordamida ijro etishidir, masalan: sotuvchi-xaridor, shifokor-bemor, aktyor va uning muxlisi va hokazo. O'yinlar o'z navbatida, reproduktiv xarakterdag'i o'yinlarga bo'linadi, bunda bolalar odatiy, standart dialogni takrorlash, uni muayyan vaziyatda qo'llashlari talab etiladi.Masalan, standart dialoglar:

- Zeige mir (ko'rsat menga) – o'qituvchi biror-bir predmetni aytadi, bola kerakli so'z tasviri tushirilgan kartani qo'liga olib, uni ko'rsatishi lozim;
- Was ist das? (bu nima?) - o'qituvchi so'zlarni ko'rsatadi, bolalar so'zlarni nomlashadi.

Lug'at va savodxonlikni rivojlantiruvchi o'yinlarning aksariyati raqobatbardosh o'yinlar sarasiga kiradi. Ularda til materialini eng yaxshi bilgan bola g'olib hisoblanadi. Bu turli xil krossvordlar, lingvistik topshiriqlardir.

Ritmik-musiqiy o'yinlar – ana'naviy o'yinlarning barcha turlari, masalan: doira bo'lib raqslar tashkil etish, qo'shiq va she'rlar o'rgatish. Vizual o'yinlar – grafik diktant, rasmni bo'yash. Rasmlarni bo'yash tinchlantiruvchi, har doim ham mazmunli bo'lmasada, biroq juda keng tarqalgan faoliyatdir.



Chet tildagi multfilmlar tilni o'rgatishda eng yaxshi yordamchilardan biri hisoblanadi. Bolalar multfilmlarni yaxshi ko'radir va ularni ketma-ket ko'p marta tomosha qilishdan zavqlanadilar. Multfilmlar bolalarga chet tilni o'rganishda til bilan bog'liq bo'lgan ko'plab muammolarni hal qilishda yordam beradi:

- bolada "nega bu so'zlarni o'rganish kerak" degan savol bo'lmaydi;
- u multfilm tomosha qilishga qiziqadi va qahramonlarning iboralarini mammuniyat bilan takrorlaydi;
- multfilmlar bolaga nafaqat yangi so'zlarni o'rganishga, balki chet tildagi nutq tovushlarini ham o'zlashtirishga yordam beradi;
- takrorlash – agar bolaga multfilm yoqqan bo'lsa, uni qayta-qayta ko'rishga tayyor bo'ladi va oqibatda yod oladi.

Xulosa shuki, maktabgacha yoshdag'i bolalarga chet tilni sifatli o'rgatish va o'qitishda faqat ko'rish, eshitish va gapirish til ko'nikmalarni rivojlantirish orqali samarali natijalarga erishish mumkin. Bu, birinchi navbatda, o'qituvchining pedagogik mahoratiga bog'liq bo'ladi. Bolalarni chet tilda muloqot qilishi uchun ularga "jonli" muhitni o'qituvchi tomonidan yaratilishi asosiy omil hisoblanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Astafieva M.D. Ingliz tilini o'rganayotgan bolalar uchun bayramlar. –M.: Mozaika-Sintez, 2009 yil.
- 2.Galskova N.D., Nikitenko Z.N. Chet tillarni o'qitish nazariyasi va amaliyoti. Boshlang'ich mакtab: uslubiy qo'llanma.-M.: Iris-press, 2004 yil.
- 3.Guseva L.P. Biz o'ynaymiz, o'rgatamiz, ustamiz.-Rostov n/a: Feniks, 2009 yil.
- 4.Zemchenkova T.V. Maktabgacha yoshdag'i bolalar uchun chet tili.- M.: VAKO, 2008 yil.

**UMUMIY O'RТА TA'LIM MAKTABLARIDA YUQORI SINF O'QUVCHILARIГA
CHET TILI GRAMMATIKASI O'QITISHNING ZAMONAVIY USUL VA VOSITALARI**

Mamatova Dilrabo, Shamsiddinova Maftuna

Namangan davlat universiteti, Ingliz filologiyasi fakulteti Ingliz tili o'qitish metodikasi kafedrasи o'qituvchilar

E-mail: lillianalilly1504@gmail.com. Tel:+998972566536

Annotatsiya: Ushbu maqolada ingliz tili grammatikasini turli zamонавиy metodlar asosida ta'lim jarayонida takomillashtirish yoritilgan. Unda umumiy o'rta ta'lіm maktab yuqori sinf o'quvchilariga Ingliz tili grammatikasini o'rgatish muhokama qilingan, shuningdek ta'lіmnı rivojlantish uchun bir qancha tavsiyalar berilgan.

Keywords: Grammatik mavzu, zamон, interfaol usul, grammatical rules, practice.

Annotation: This article discusses the improvement of English grammar in the educational process through various modern methods. It discusses the teaching of English grammar to high school students in general secondary education, as well as provides a number of recommendations for the development of education.

Keywords: Grammatical theme, tense, interactive method, grammatical rules, practice.



108	Устоз-шогирд маданиятини шакллантиришда Айкидо шарқ яккаурашининг аҳамияти Камбаров Н.С., Рахматова Х.А.	525
109	Maktabgacha yoshdag'i bolalar hayotida jismoniy tarbiya vositalarining o'rni. Asqarova D.Q., Asqarov F.T.	530
110	Технология дарсларида ўқувчиларни техник фикрлаш қобилиятини шакллантириш ва ривожлантириш зарурати Мухитдинова Ж.Р.	535
111	Kitobga muhabbat uyg'otishda oilaning o'rni Xodjiyeva F.T.	539
112	Bolalar bog'chasida chet tilni o'rgatish metodikasi Nishanova T.A., Shermatjonova M.N.	542
113	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida yuqori sinf o'quvchilariga chet tili grammatikasi o'qitishning zamonaviy usul va vositalari Mamatova D., Shamsiddinova M.	545
114	Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishning samarali yo'llari Jo'rayeva T.U.	548
115	An'anaviy va no'ananaviy dars mashg'ulotlari, uning afzallik va kamchiliklari Ibroximov M.A., Rustamova Z.F.	553
116	Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'rtasida kitobxonlik madaniyatini oshirish. Nuriddinova D.I., Zaylobiddinova M. A.	557
117	Kitobxonlikka qiziqishni tarbiyalash orqali o'quvchilarda shaxslararo madaniyatni shakllantirish Zaylobiddinova M. A., Nuriddinova D.I.	562
118	O'quvchilarda kreativ salohiyatni shakllantirishning individual-psixologik xususiyatlari Ibrohimova N.I., Nuraliyeva K.I.	567
119	Fan-tehnika taraqqiyoti davrida yoshlar tarbiyasining dolzarb muammolari. Mirqosimova M.	572
120	Халқ ўйинларининг таълим – тарбия жараёнидаги педагогик омиллари Этамбердиева Т.А., Йўлдошев С.В.	575
121	Oliy ta'lim muassasalari talabalarini sog'lom turmushga tayyorlashda jismoniy tarbiya va sportning o'rni Mahmudov N.N.	580
122	The role of motivation in teaching English to young learners Akbarova R., Baxriddinov A.	584
123	Chet ta'limida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvdan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari Kukiboyeva M.	589
124	Ingliz tilini o'rganish jarayonida tanqidiy fikrлаш madaniyatini shakllantirish omillari Tuychiev A.T.	592